

O'RTA OSIYO ALLOMALARI ILMIY MEROSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIK JIHLARINING NAMOYON BO'LISHI

F.A.Raximova,

Urganch davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk allomalarimizning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari va yondashuvlari, shuningdek o'qituvchi kasbining mahorati va fazilatlarini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, insonparvarlik, komillik, tarbiya, ma'naviy meros, kognitiv.

Аннотация. В этой статье рассматриваются взгляды и подходы великих ученых к образованию и воспитанию, а также навыки и качества профессии учителя.

Ключевые слова: компетентность, гуманность, совершенство, воспитание, духовное наследие, познавательный.

Abstract. This article examines the views and approaches of our great scientists to education and upbringing, as well as the skills and qualities of the teacher profession.

Keywords: competence, humanity, perfection, upbringing, spiritual heritage, cognitive.

Kirish. Bugun Respublikamiz ta'lim tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohiy o'zgarishlar negizida o'qituvchilik kasbiga katta e'tibor va e'tiroflar bo'lyapti. O'qituvchilik – bu nafaqat kasb sifatida, balki o'quvchining shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda, bu sifatlarning rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga, undagi komillik jihatlarni tarkib toptirishga mas'ul shaxs sifatida ham e'tirof etilmoqda. Beruniy, Avloniy, Farobiy, Alisher Navoiy kabi buyuk sharq mutafakkirlarining pedagogik meroslarida ham shaxsning rivojlanishida o'qituvchining o'zni o'ta muhim ekanligi bayon qilingan. Sharq azaldan ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan. Insonparvarlik g'oyalari, ta'lim olish, ilm izlash ruhiyati sharq kishilari ijtimoiy, ma'naviy, falsafiy qarashlarida ustuvor ahamiyat kasb etgan. O'rta Osiyo xalqlarining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da keltirilgan: "Hayotning eng muhim tayanchi – tarbiya", degan fikrlardan ham ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor berilganini ko'rishimiz mumkin. Kelajak avlod tarbiyasi borasidagi muammolar haqida gapirganda allomalarimizning o'qituvchi kasbi va mahorati haqidagi fikrlarini eslash lozim. Chunki Sharq – qadim sivilizatsiyalar beshigi hisoblanib, u ta'lim va tarbiya borasida juda nozik qarashlarni ilgari surgan. Buyuk allomalarimizdan bizga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlar bayon qilingan bir qancha asarlari meros qolgan. Ushbu bebaho merosdan o'z o'rnida foydalanish o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini oshiradi desak xato bo'lmaydi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlarida shunday degan edilar: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamalarimiz bu

ma'naviy xazinani bugungi avlodga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari lozim".

Adabiyotlar tahlili. Mavzu doirasida Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari keng tahlil qilinib, xususan Muhammad al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida o'qituvchining kasbiy va axloqiy fazilatlariga oid fikrlar yoritilgan. Shuningdek, zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda ham ustoz shaxsiga qo'yilgan ma'naviy-axloqiy talablar o'z ifodasini topgan. Zamonaviy tadqiqotchilar pedagogik mahorat va kompetentlik tushunchalarini tarixiy meros bilan uyg'un holda talqin etib, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablarning ildizlari qadimiy manbalarga borib taqalishini asoslab berganlar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharq allomalari merosi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy taqqoslash va manbalarni kontseptual umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi va amaliy ahamiyati ochib berildi.

Tahlillar va natijalar. Buyuk alloma Muhammad Al-Xorazmiy o'zining "Al-jabr-val-muqabala" kitobida o'qituvchilar faoliyatini baholab shunday yozgan: "Ulardan biri o'z o'tmishdoshlarining rejalari, orzularini amalga oshirish va tabiatning sir-asrorlarini ochib, sharxlab bergan xolda ularning asarlarini izohlab berish uchun boshqalardan oldinda yuradi" [1].

Bu bilan olim o'qituvchi faoliyatida murakkab narsalarni osonlik va ijodkorlik qobiliyati bilan tushuntirish sifatini ustun qo'yadi. O'qituvchi ta'limiy faoliyati davomida doimiy ravishda yuqori natijalarga erisha olsa u professional malakali o'qituvchi maqomiga erishadi. Professionallik mahorati esa o'qituvchini quyidagi kasbiy kompetentlik sifatlari bilan ta'minlaydi: umumiy madaniy kompetentsiya, shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish kompetentsiyasi, kognitiv va ijodiy kompetentsiya, shaxsning qiymat-semantik yo'nalishi, kommunikativ kompetentsiya, axborot kompetentsiyasi, ijtimoiy va mehnat kompetentsiyasi. Kompetentsiya-bu o'qituvchining muayyan xulq-atvor standartlariga rioya qilish qobiliyati, ya'ni, ta'limiy faoliyat mezonlaridir. Mezonlar faoliyatning murakkab natijasini aks ettiradi va nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki shaxsning shaxsiy xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Baxtga eltuvchi bilim" risolasida o'qitish usullarini ikkita turga: "yumshoq" va "qattiq"ga ajratadi.[1] Agar ta'lim oluvchilarning o'zlari fanlarni o'zlashtirish istagini, mehnat qilishga intilishni namoyon qilsalar, unda bu holda ushbu intilishlarni kuchaytirishga yordam beradigan yumshoq ta'lim usullari mos keladi. Agar ta'lim oluvchi dangasa, irodasiz bo'lsa-ularga qattiq usullardan foydalanish maqbulroq. Ushbu usullarni sharhlar ekan, alloma ta'lim jarayoni tajribali o'qituvchi tomonidan boshqarilishi va o'qitishning eng maqbul usullaridan foydalanilishi lozimligini

aytadi. Agar o'qituvchi o'quvchilardan rostgo'ylik, xushmuomalalik, adolatni talab qilsa, avvalo o'zi shunday fazilatlarga ega bo'lmog'i lozim.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ta'kidlanishicha, o'qituvchi-murabbiylar bolalarga axloqiy me'yorlarni, yaxshilikni yomondan ajrata olishni o'rgatishlari, hayotda to'g'ri yo'lni tanlashda yordam berishlari shart, shuningdek, bolalarni yovuzlikka qarshi turishga o'rgatadigan, faqat haqiqatni gapiradigan, faqat yaxshilik haqida o'ylaydigan aqlli yaxshi o'qituvchilarga maqtovlar e'lon qilingan va aksincha, dangasalik va johillik, mas'uliyatsizlik va savodsizlik tufayli bolalarni o'qishdan qo'rqitgan o'qituvchi-murabbiylar la'natlangan" [3].

Buyuk qomusiy olim Ibn Sino o'z qarashlarida pedagogik mahoratni xuddi o'qituvchi rioya qilishi kerak bo'lgan tavsiyalarning biri sifatida e'tirof etadi. Ya'ni o'qituvchi bolalar bilan muloqotda juda ehtiyotkor va samimiy bo'lishi, o'quv materialining o'zlashtirilish darajasini doimo kuzatib borishi, o'quvchining shaxsiy fazilatiga va qobiliyatiga tayanib yondashishi, bolalarning aqliy rivojlanishiga muvofiq bo'lgan vazifalarni bera olishi kerak, shu bilan birga o'qituvchining har bir so'zi o'quvchining tarqoq fikrini uyg'ota olishi kerak.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, o'zbek mumtoz adabiyoti asoschisi Alisher Navoiy inson ongi va ilmini yuqori baholagan va "Bilim va donolik insonning bezakidir" degan fikrni ilgari surgan. Uning she'riy va nasriy asarlarida ta'lim va tarbiya masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Navoiyning pedagogik qarashlari chuqur gumanistikdir. U farzandni quvonch va baxt bilan iforlangan oilada tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratgan. Navoiy maktabda ham, uyda ham majburiy tarbiya usullariga qarshi bo'lib, dunyoviy ta'lim tarafdori bo'lgan: "Asosiysi, bolalarga bo'lgan muhabbat. Johil o'qituvchilar-maktab uchun katta xavfdir". "O'qituvchi nafaqat o'z sohasini mukammal bilishi va chuqur bilimga ega bo'lishi, balki xalqning ehtiyojlarini tushunishi, hamma narsada o'rnak ko'rsatishi kerak" deydi u. O'qituvchining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida gapirganda, Navoiy o'qituvchiga katta hurmat ila muomala qilish kerakligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Sharqning buyuk mutafakkirlarining pedagogik fikrlari o'qituvchilarda adolat, chidamlilik, ehtiyotkorlik, yaxshi tabiat, bilimga intilish va uning sifatini doimiy ravishda oshirish, insonga bo'lgan muhabbat va hurmat, ijodiy faoliyat va boshqalar kabi kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish uchun manba bo'lib xizmat qilishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Матякубов, И. Б. Идеи восточных учёных о педагогическом мастерстве //Молодой ученый. 2017. № 12 (146). – С. 525-528.
2. Кузьмина Н.В. Способности, одарённость, талант учителя. – М., 1985.
3. moluch.ru Из философского наследия народов Ближнего и Среднего Востока. – Ташкент, 1972.
4. Zardushtiylik. (Zardusht) Falsafa, asosiy g'oyalar, mohiyati va tamoyillari. <https://zserials.ru/uz/zoroastrizm>.